

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatি
yagona aksiyadorining
8-son qarori**

2023-yil 12-may
soat 15:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 15-may kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari G‘. Soliyevning arizasini ko‘rib chiqish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari Soliyev G‘ulomjon G‘ofurjonovichni o‘z xohishiga ko‘ra egallab turgan lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi arizasi o‘qib eshittirildi (*G‘. Soliyev ning arizasi ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Arizani qanoatlantirish taklifi kiritildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Dehqonobod kaly zavodi” AJ yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari Soliyev G‘ulomjon G‘ofurjonovich o‘z arizasiga binoan 2023-yil 12-may kuni egallab turgan lavozimidan ozod qilinsin va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinsin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.**



T. Muxamedjanov